

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUN, 2025-YIL





O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-184-1

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 13-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari” nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-184-1

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

Salimova Hilola

SUG'ORILADIGAN O'TLOQI-TAQIR TUPROQLARNING AGROKIMYOVIY TAVSIFI VA OZIQ
MODDALAR ZARHIRASI (G'ijduvon tumani misolida)5-10

IQTISODIYOT FANLARI

Kadirova Shaxnoza

YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARNING
SALOHIYAT IMKONIYATLARINI BOSHQARISH 11-14

YURIDIK FANLARI

Rahmonov Abbos

ISTE'MOLCHILARGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN FUQAROLIK-HUQUQIY
JAVOBGARLIKNING XALQARO TAJRIBADAGI SHAKLLARI VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI
BILAN SOLISHTIRMA TAHLILI 15-18

Ernazarova Feruza

SHAXSNI ERKIN RIVOJLANTIRISH HUQUQI: O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA
IFODALANISHI VA XALQARO HUQUQIY NORMALAR BILAN UYG'UNLIGI 19-22

Donayeva Aziza

"ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA SUN'IY INTELEKTNI HUQUQIY TARTIBGA
SOLISH" 23-29

Sobirov Temur

AUTSORSING, AUTSTAFFING VA XODIMNI BOSHQA ISH BERUVCHIGA VAQTINCHA XIZMAT
SAFARIGA YUBORISH: HUQUQIY ASOSLAR,
TA'RIFLAR VA O'ZBEKISTONDAGI AMALIYOT 30-34

Тогаймуродова Камола

ИСТОРИКО-ПРАВОВОЕ РАЗВИТИЕ ИНСТИТУТОВ НОТАРИАТА И ГОСУДАРСТВЕННОЙ
РЕГИСТРАЦИИ СДЕЛОК 35-38

Бобоева Муслима

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОСПОСОБНОСТИ И ДЕЕСПОСОБНОСТИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ 39-42

Tuymayev Asadbek

MEHNAT NIZOLARIDA DA'VO MUDDATLARI MILLIY VA XORIJIY QONUNCHILIK 43-46

Nizomova Khosiyatkhon

PROHIBITION OF DISCRIMINATION IN NATIONAL LABOR LAW 47-49

Qadamov Javohirbek

RAQAMLI MAKONDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA
QILISHNING HUQUQIY JIHATLARI 50-55

Ergashova Mamura

MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISHDA SUD TARTIBINING USTUVORLIGI: QONUNCHILIK
NAZARIYASI VA SUD AMALIYOTI 56-60

Isaqlulova Elmira

SMART-KONTRAKTLAR TERMINOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA AHAMIYATI 61-66

<i>Амирова Умида</i> ПРОБЛЕМЫ ПРИОБРЕТЕНИЯ СТАТУСА АДВОКАТА ИНОСТРАННЫМИ ГРАЖДАНАМИ	67-70
<i>Xursanov Shamsiddin</i> XALQARO SAVDODA BARQAROR RIVOJLANISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR	71-74
<i>Fayziyev Hayriddin, Zokirkonov Zoxidjon</i> MEHNAT MUNOSABATLARIDA ATTESTATSIYA VA UNING HUQUQIY AHAMIYATI	75-78
<i>Исомухамедова Мадина</i> ОСНОВНЫЕ ФОРМЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ С ПОМОЩЬЮ ТРЕТЬЕГО ЛИЦА: МЕДИАЦИЯ, ПРИМИРЕНИЕ И АРБИТРАЖ КАК ПРОЦЕСС, СПОСОБСТВУЮЩИЙ ПРЕКРАЩЕНИЮ КОНФЛИКТОВ	79-83
<i>Абдурахмонов Асадбек</i> РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В СИСТЕМЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ	84-87
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Арипджанова Фарзона</i> ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ И ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ СД 2 ТИПА С МЕТАБОЛИЧЕСКИ АССОЦИИРОВАННОЙ ЖИРОВОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПЕЧЕНИ (МАЖБП)	88-92

YURIDIK FANLARI

ISTE'MOLCHILARGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING XALQARO TAJRIBADAGI SHAKLLARI VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI BILAN SOLISHTIRMA TAHLILI

Rahmonov Abbos G'anisher o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: abbosraxmonov005@gmail.com

Tel: +998 97 229 41 47

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur ishda iste'molchilarga yetkazilgan zarar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari yoritilgan bo'lib, bu sohaga doir nazariy tushunchalar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi normalar hamda xalqaro tajriba asosida qiyosiy tahlil o'tkazilgan. Xususan, zarar tushunchasining huquqiy talqini, javobgarlik asoslari va kompensatsiya shakllari o'rganilib, xorijiy davlatlar – AQSH va Yevropa Ittifoqi qonunchilik tizimlaridagi yondashuvlar bilan solishtirilgan. Tadqiqot natijalarida O'zbekistonda iste'molchilar huquqlarini samarali himoya qilish uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iste'molchi, zarar, javobgarlik, fuqarolik huquqi, kompensatsiya, xalqaro tajriba, qiyosiy tahlil, himoya mexanizmi.

FORMS OF CIVIL LIABILITY FOR DAMAGE CAUSED TO CONSUMERS IN INTERNATIONAL PRACTICE AND A COMPARATIVE ANALYSIS WITH UZBEKISTAN'S LEGISLATION

Rahmonov Abbos G'anisher o'g'li

Master's Student, Tashkent State University of Law

Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This paper examines issues of civil liability for damage caused to consumers, focusing on theoretical concepts, relevant provisions in the legislation of the Republic of Uzbekistan, and a comparative analysis based on international experience. In particular, it explores the legal interpretation of damage, the grounds for liability, and forms of compensation, comparing approaches in foreign countries—namely, the legal systems of the United States and the European Union. Based on the research results, recommendations have been developed to improve the system of civil liability in Uzbekistan to ensure more effective protection of consumer rights.

Keywords: consumer, damage, liability, civil law, compensation, international experience, comparative analysis, protection mechanism.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-184-1/uzb-3>

So'nggi yillarda global miqyosda iste'molchilarning huquqiy maqomi va ularni himoya qilishning samarali mexanizmlarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, raqamli savdo va ishlab chiqarish sohasida mahsulot va xizmatlar ko'lamining kengayishi natijasida iste'molchilarning zararlanish xavfi ortib ketdi. Ayniqsa, noto'g'ri yoki nuqsonli mahsulotlar sababli iste'molchiga zarar yetkazilgan hollarda fuqarolik-huquqiy javobgarlikning aniq belgilanishi nafaqat shaxsiy manfaatlarni

himoya qiladi, balki jamiyatda adolatli huquqiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi [1; B.4.]. Tadqiqot metodologiyasida qiyosiy-huquqiy tahlil usuli asosiy yondashuv sifatida tanlangan bo'lib, xorijiy amaliyotdagi kompensatsiya mexanizmlari, javobgarlik mezonlari va sud qarorlari orqali O'zbekiston tizimining zaif va kuchli tomonlari aniqlanadi. Shuningdek, solishtirma tahlil vositasida iste'molchi huquqlarini samarali himoya qilishda universal yondashuvlar va ularni milliy huquqiy bazaga implementatsiya qilish imkoniyatlari o'rganiladi [2; B.88.].

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligida iste'molchiga yetkazilgan zararining qoplanishi fuqarolik-huquqiy javobgarlik doirasida ko'rib chiqiladi. Fuqarolik kodeksining 11-moddasida zarar ko'rgan shaxsning huquqlarini himoya qilishning bir usuli sifatida "zararni to'lash" aniq belgilangan bo'lib, bu norma fuqarolik muomalasida javobgarlik institutining asosiy tayanchlaridan biridir [3; 11-mod.]. Fuqarolik kodeksining 14-moddasida esa zarar tushunchasi keng talqin etilgan: unga ko'ra, zarar — bu shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan xarajatlari, mol-mulking yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar) hamda u ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda)ni o'z ichiga oladi. Ushbu modda, shuningdek, zarar yetkazgan shaxs o'z harakatlari bilan daromad orttirgan bo'lsa, zarar ko'rgan tomon bunday foydani ham kompensatsiya sifatida talab qilish huquqiga egaligini ko'rsatadi [3; 14-mod.].

O'zbekiston qonunchiligida zarar yetkazilgan shaxsning da'vo qilish huquqi ayrim hollarda cheklanmaydi. Masalan, Fuqarolik Kodeksining (FK) 163-moddasiga ko'ra, fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun da'vo muddati joriy qilinmaydi. Bu esa ijtimoiy jihatdan zaif qatlam bo'lgan iste'molchilarni huquqiy jihatdan muhofaza qilishga qaratilgan muhim kafolat hisoblanadi [3; 163-mod.]. Fuqarolik kodeksining 260-moddasi esa neustoyka instituti orqali zararlarni qoplashni soddalashtiradi. Ya'ni, agar shartnomada neustoyka belgilangan bo'lsa, zarar ko'rgan taraf o'ziga yetkazilgan zararni alohida isbotlamasdan ham belgilangan summani undirib olishga haqli [3; 260-mod.]. Shuningdek, iste'molchi ishtirokidagi munosabatlarda javobgarlikni cheklashga doir qoidalar mavjud. FKning 332-moddasida belgilanishicha, agar iste'molchi bilan tuzilgan shartnomada qarzdorning javobgarligini cheklash ko'zda tutilgan bo'lsa, bu shart haqiqiy hisoblanmaydi. Bu norma iste'molchini zaif tomon sifatida himoya qilishga qaratilgan bo'lib, shartnoma erkinligi prinsipining cheklanishi hisoblanadi [3; 332-mod.].

Amaliyotda esa bir qator muammolar mavjud: iste'molchi ko'pincha zarar faktini mustaqil ravishda isbotlashi talab etiladi; shikastlanish yoki tovar nuqsonini baholash bo'yicha mustaqil ekspertizalarning yetarli emasligi, sud orqali kompensatsiya olish jarayonlarining uzoq va xarajatli ekani real huquqiy himoyani cheklaydi. FKning 358-moddasida ommaviy shartnoma shartlari barcha iste'molchilar uchun bir xil bo'lishi belgilangan bo'lsa-da, ayrim tashkilotlar ushbu talablarni chetlab o'tishga urinishi amaliy muammo bo'lib qolmoqda [3; 358-mod.]. Shuningdek, FKning 377-moddasi iste'molchi bilan shartnoma tuzishdan asossiz ravishda bosh tortgan tashkilot zararlarni to'lashi lozimligini belgilaydi. Bu esa javobgarlik institutining yana bir amaliy ko'rinishidir [3; 377-mod.].

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasida zarar tushunchasi aniq belgilab berilgan bo'lsa-da, zararni isbotlash majburiyati, ayniqsa, faktik zarar va boy berilgan foyda mezonlari amaliyotda iste'molchi zimmasiga tushadi. Bu holat Yevropa Ittifoqi

tajribasida, xususan, 85/374/EEC-sonli “Product Liability Directive”da ko’zda tutilgan “qat’iy javobgarlik” (strict liability) prinsipi bilan keskin farq qiladi. Unga ko’ra, mahsulotdagi nuqson tufayli zarar yetkazilgan bo’lsa, ishlab chiqaruvchining aybi isbot qilinishi shart emas — u avtomatik ravishda javobgar hisoblanadi [4; B.17].

AQSHda esa tort (torts) huquqining uch asosiy shakli: ayb asosida javobgarlik (negligence), qat’iy javobgarlik (strict liability) va sifat kafolati (warranty) orqali iste’molchilar huquqlari himoya qilinadi. Ayniqsa, “strict product liability” konsepsiyasi bo’yicha, iste’molchi faqat mahsulotning nuqsonli ekanini va bu sababli zarar ko’rganini ko’rsatsa kifoya — ishlab chiqaruvchi aybsiz bo’lsa ham, javobgarlikka tortiladi. Bu yondashuv O’zbekistondagi 14-modda doirasidagi zararni to’liq isbotlash majburiyatidan ko’ra, iste’molchi uchun soddaroq huquqiy mexanizmni taklif qiladi.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi qonunchiligida, ayniqsa “Consumer Sales and Guarantees Directive 1999/44/EC” asosida, iste’molchilarning zarar uchun da’vo qilish muddatlari ancha qulay sharoitda belgilangan. Masalan, mahsulot nuqsoni yetkazilganidan so’ng kamida 2 yillik da’vo qilish muddati belgilanadi, ba’zi hollarda bu muddat 10 yilgacha uzaytirilishi mumkin [5]. Bu esa O’zbekiston Fuqarolik kodeksining 163-moddasida faqat hayot va sog’liqqa zarar yetkazilgan hollar uchun cheklanmagan da’vo muddati nazarda tutilganidan farqlanadi — boshqa hollarda esa umumiy 3 yillik da’vo muddati bilan chegaralanadi. Yana bir muhim farq – moral zarar yoki ma’naviy ziyonga doir kompensatsiyadir. AQSHda ayrim shtatlarda moral zarar mustaqil asosda qoplab beriladi, ayniqsa sog’liqqa, obro’ga yoki ruhiy holatga yetkazilgan zararlarda. Yevropa Ittifoqi ham bu yo’nalishda rivojlanmoqda, ayniqsa Inson huquqlari bo’yicha Yevropa sudi qarorlari orqali. O’zbekistonda esa FKning 11-moddasida ma’naviy ziyonni qoplash nazarda tutilgan bo’lsa-da, sudlar tomonidan bu institut amaliyotda kam qo’llaniladi, miqdorlar esa juda past belgilangan.

Neustoyka instituti (FK, 260-modda) O’zbekistonda zarar isbotini chetlab o’tish imkonini bersa-da, AQSHda bu institut mavjud emas, lekin shartnoma asosida belgilangan kompensatsion mexanizmlar orqali zararlar qoplanadi. Shuningdek, AQSHda sudlar iste’molchi foydasiga penalti va kompensatsiya miqdorlarini mustaqil belgilashi mumkin, bu esa ijtimoiy ta’sirni oshiradi. FKning 332-moddasi bo’yicha O’zbekistonda iste’molchining zararidan voz kechishga doir shartlar haqiqiy emas deb topilsa-da, Yevropa Ittifoqida bu yondashuv “Directive 2011/83/EU”da kuchliroq aks etadi — “iste’molchi bilan tuzilgan har qanday shartnomada ularning qonuniy huquqlaridan voz kechishga yo’l qo’yilmasligi” qat’iy belgilab qo’yilgan [4; B.21].

Shunday qilib, Yevropa va AQSH tajribasida zarar yetkazilgan iste’molchini himoya qilishda:

- aybni isbotlash yukining ishlab chiqaruvchiga o’tishi;
- zarar turlarining keng talqini (jumladan, moral zarar);
- da’vo muddatlarining yumshoqligi;
- ma’muriy/sud yordamining qulayligi (class action, no-win-no-fee)

kabi jihatlar ustunlik qiladi. Bu esa qiyosiy tahlil asosida O’zbekistonda iste’molchilarni huquqiy jihatdan samaraliroq himoya qilish mexanizmlarini shakllantirish zarurligini ko’rsatadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, iste'molchilarga yetkazilgan zarar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalasi zamonaviy huquqiy tizimlarda iste'molchi huquqlarining asosiy himoya mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida bu masalaga doir huquqiy asoslar mavjud bo'lib, zarar tushunchasi, uni qoplash shakllari, javobgarlik mezonlari va ayrim hollarda da'vo muddatining cheklanmasligi kabi huquqiy kafolatlar belgilangan. Biroq tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, amaliyotda ushbu mexanizmlarning samaradorligi yetarli emas. Zararni isbotlash yukining iste'molchi zimmasiga tushishi, mustaqil ekspertiza tizimining rivojlanmaganligi va sudlarning zarar kompensatsiyasini past miqdorda belgilash holatlari real huquqiy himoyani cheklab qo'ymoqda. Bundan tashqari, ba'zi tashkilotlar tomonidan ommaviy shartnoma shartlariga rioya qilinmasligi ham iste'molchi huquqlarining buzilishiga olib kelmoqda.

Yevropa Ittifoqi va AQSH tajribasining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy huquqiy tizimlarda zarar yetkazilgan iste'molchilarni himoya qilishda qat'iy javobgarlik tamoyili, boy berilgan foyda va ma'naviy zarar kompensatsiyasining keng talqini, sud orqali da'volarni soddalashtirish mexanizmlari (masalan, "class action" yoki "no win – no fee" tizimi) mavjud. Bundan tashqari, 85/374/EEC va 1999/44/EC direktivalari orqali ishlab chiqaruvchilar zimmasiga aniq va qat'iy javobgarlik yuklanadi, bu esa iste'molchilar huquqlarini faol himoya qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Babayev D.I. Iste'molchilarning huquqlarini internet tarmog'ida himoya qilish: o'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 116 b.
2. Zweigert K., Kötz H. An Introduction to Comparative Law. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 741 b.
3. Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111189>
4. European Commission. Council Directive 85/374/EEC of 25 July 1985 on the approximation of the laws, regulations and administrative provisions of the Member States concerning liability for defective products. – Brussels, 1985.
5. European Parliament and Council. Directive 1999/44/EC of 25 May 1999 on certain aspects of the sale of consumer goods and associated guarantees. – Official Journal of the European Communities, 1999. – L 171, 07/07/1999.

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 13-iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM
ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
– Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 13-iyun

ISBN 978-9910-09-184-1

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.